



BASTAKORLIK IJODIYOTI: TARIX VA TAQDIR

Kamola Xasanova

Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti

"Musiqa ta'lifi" yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada qadimiy san'at turi bastakorlik ijodiyotining tarixiy rivojlanish yo'li xususida ma'lumot beradi. Shuningdek, bastakorlik san'atiga oid fikr-mulohazalar maqolada aks etadi.

Kalit so'zlar: bastakorlik, "Ustoz-shogird maktabi", lapar, yalla, kuy, qo'shiq

Xalqimiz juda ham boy va ulkan musiqiy merosga ega. Sermazmun va purma'nolikka ega bo'lgan kuy va qo'shiqlarimiz, insonning hayotga, atrof muhitga bo'lgan muhabbatini oshiruvchi, unga zavq-shavq beruvchi quvnoq kuy, lapar va yallalarimiz, shu bilan birga kishini chuqur o'nya toldiruvchi, mushohadaga undovchi va eng muhimi – tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mumtoz ashula va maqomlarimiz – o'zbek xalqining ruhiyati, o'y-fikrlari va asl o'zligining mahsulidir. Shuning uchun ham deyarli barcha marosimlarimiz yoki quvonchli va esda qolarli kunlarimiz bu milliy ohanglarimizsiz o'tmaydi.

Qadimdan o'zbek musiqa san'atida ustozona musiqa birlamchi ahamiyat kasb etib kelgan. Buning zaminida xalq ichidan chiqqan bastakorlarning xizmati beqiyosdir. Ularning ijodiy faoliyati har qaysi davrda ham xalqning ma'naviy va ijtimoiy ehtiyoji sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham Sharq xalqlari, xususan o'zbek millati hayotini hech qachon bastakorlarning yaratgan asarlari, qoldirgan merosi va ularning yangidan-yangi yaratilajak ijod namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi klinikimizda ijodiyotning bastakorlik sohasi bilan bir qatorda Kompozitorlik sohasi ham keng rivojlanib bormoqda. Biroq bu ijodiy yo'nalish nisbatan yosh musiqiy faoliyatlardan hisoblanadi. Shu bilan birga tan olib aytish kerakki, kompozitorlarning ijod namunalarini xalqning ma'lum bir doiralarigina tinglaydi, tushunadi va qabul etadi. Shunday ekan, hali hanuz bastakorlik ijodi xalqning diqqat markazidagi birlamchi musiqiy faoliyat va hayotidagi zarurat bo'lib qolaveradi.

Bastakorlik an'analariga ko'ra, ijodkor eng avvalo ijrochilikda mohir bo'lishi lozim. Qolaversa, sozandalik, xonandalik, badiiy adabiyot va aruz ilmini puxta egallashi, meros bilimdoni hamda badihago'ylik xususiyatini o'zida mujassam etishlik – bularning barchasi bastakorlikning muhim talablaridandir va bu talablar qadimgi davrlardanoq shakllanib kelgan. Shuning uchun bastakorlik ijodiyoti tarixini aynan xonandalik va sozandalik ildizlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish shart. Chunki bastakorlik mazkur ijodiy faoliyatlarining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Shu o'rinda T.B.G'ofurbekovning fikrlari asoslidir: "Odatda bunday san'atkorlar o'z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko'proq sozanda)lik va ijodchilikni uzviy bog'lashgan" [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. t I. T.: 1999] Shunga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, bastakorlikning tarixiy ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Tarixiy adabiyotlarda ma'lumotlarga qaraganda, eramizdan avvalgi IV asarlarda Iskandar Zulqarnayn O'rta Osiyoni zapt etadi va bu yerning aholisi bo'lmish sug'diyilar, baqtriyaliklar va xorazmliklarning boy musiqa madaniyati, xususan xonandalik, sozandalik va raqs san'atlaridan hayratda qoladi. Eramizning I asriga aloqador, Ko'hna Ayritomda topilgan noyob toshtaxta karnizida mashshoqlar ansambl tasvirlangan bo'lib, bu ashyoviy dalil o'sha davrda sozandalachilik san'ati yetarli darajada rivojlanganligidan xabar beradi. Demak, bastakorlik ijodiyotining (ya'ni musiqiy ijodchilikning) shakllanish davri taxminan eramizdan avvalgi IV va eramizning I asrlarini o'z ichiga oladi. Bastakorlik tarixini o'rganish borasidagi ma'lumotlarni turli yozma manbalarda, jumladan, Forobiyning "Katta musiqa kitobi", Xorazmiyning "Ilmlar kaliti", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni, shuningdek Davlatshoh



Samarqandiyning “Tazkiratush - shuar”, Alisher Navoiyning “Majolis – un nafoiy”, Nisoriyning “Muzakkiri Ahbob” kabi asarlarida uchratish mumkin.

Sharq musiqa ilmining asoschisi Abu Nasr Forobiy o‘zining “Katta musiqa kitobi”ning musiqa ilmiga bag‘ishlangan bobida bastakorlik sohasini alohida bir bo‘limda yoritib beradi. Forobiy risolasida bu bo‘lim “Kuylarni yaratish hay’ati” deb nomlangan. Alloma o‘z davrining mohir musiqa ijod etuvchilarini biron-bir maxsus nom bilan atamagan. Ulardan mashhurlari qatorida Ma’bat al-Madiniy va Ibn Surayj al-Makkiy nomlarini keltiradi. Ularni mashhur “kuy yaratuvchilaridan” deb ta’rif berib o‘tadi. [Abu Nasr Forobiy. Kitab – musiqa al – Kabir. Arab tilidan tarjima va izohlar A.Nazarovniki. Kitob: Musiqa ijodiyoti masalalari. T.:1997]

Mazkur davrlardan boshlab, milliy bastakorlik an’analarining asosi XX asrgacha maqom va mumtoz musiqa ijodiyoti bo‘lib kelgan bo‘lsa, XX asrning 20-yillaridan boshlab bastakorlik ijodiyotida yangicha uslublar shakllana boshladi. Bu hodisa rus va u orqali boshqa G‘arbiy va Sharqi Evropa mamlakatlarining musiqa an’analarini kirib kela boshlaganligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan esa, zamon bastakorlari “musiqiy merosimizni asrab avaylagan holda uning asl navlaridagi namunalarini qo‘llashda vorisiylikni ta’minlab, yangi-yangi uslubiy yo‘nalishlarni yaratishga tuyassar bo‘lishgan” [Yunusov R. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. Kitob: Musiqa ijodiyoti masalalari T.: Qatortol – Kamolot. 1997]

Bu borada Hamza Hakimzoda Niyoziy, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Nabijon Xasanov, G‘anijon Toshmatov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Orifxon Hotamovlarning ulushi ayniqsa salmoqlidir. Bastakorlar ijodiga marsh, vals, musiqali drama, ommaviy qo‘shiq kabi yangi janrlar kirib keldi. Bular, jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ko‘zga tashlanadi.

Xususan, uning “Yasha sho‘ro”, “Biz ishchimiz”, “Hoy-hoy otamiz” kabi qo‘shiqlarida G‘arb san’atiga xos shakl va boshqa musiqiy ifoda vositalari bilan an’anaviy o‘ziga xosliklar birga qo‘llanilgan bo‘lsa, “Ko‘zlarin ni yashirma”, “Sayyora” va boshqa qo‘shiqlarida milliy yo‘nalish tamoyillari ustunlik qiladi.

Bu davrning o‘ziga xosligini umumiyoq qilib aytganda, avvallari bastakorlarda mumtozlikka intilish va yangi yaratilajak asariga o‘xshash asarlarga murojaat etish kuchli bo‘lgan bo‘lsa, endi har bir ijodkor o‘z dunyo qarashlari negizida va zamonga mos tarzda asar yaratishga urina boshladi. Bunday fikrlarni Yunus Rajabiy, Saidjon Kalonov, Muxtorjon Murtazoyev, Imomjon Ikromov, Nabijon Hasanov, Orifxon Hotamov, G‘ulomjon Hojiqulov, shu o‘rinda yangi davr bastakorlari: Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, Qahramon Komilovlar ijodiga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Наср Форобий. Китаб – мусиқа ал – Кабир. Араб тилидан таржима ва изоҳлар А.Назаровники. Китоб: Мусиқа ижодиёти масалалари. Т.:1997 й.
2. Юнусов Р. Фахриддин Содиковнинг ижодий мероси ҳозирги замон бастакорлик жараёни кесимида. Китоб: Мусиқа ижодиёти масалалари Т.:Қатортол – Камолот. 1997й.
3. О.Матёқубов. Мақомот. –Т., «Мусиқа», 2004.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.: 1999 й.
5. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНинг НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN”. JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.
6. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN’ATDA QALAMTASVIR TEXNOLOGIYASINI O’QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. Scienceandinnovation, 1(C2),



7. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation*, 1(3),.
8. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. Евразийский журнал академических исследований, 2(11),
9. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. Математическое и компьютерное моделирование естественно-научных и социальных проблем: материалы XVI Всероссийской научно-практической конференции, 131.
10. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18,
11. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation*, 2(C7),
12. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7),
13. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
14. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
15. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
16. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje*, 34,
17. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXOESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje*, 34,
18. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),
19. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
20. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
21. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,



22. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2),
23. Achildiyeva, M., Khojimatov, A., Dilafuz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).
24. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2),
25. Achildiyeva, M.,& Ikromova, FTHE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456–5083
26. Achildiyeva, M., Xojimatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsabqlari:" Navo" maqomixususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, 11(01),
27. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific HeristageAnnals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4)
28. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. European Scholar Journal, 2(9),
29. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., &Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6),
30. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
31. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 344-352.
32. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM Journal of Innovation, Reforms and Development (2022) ISSN (E):2751-1731
33. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
34. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
35. Xojimatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
36. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384



37. Xojimamatov A. Atkiyoeva R.“VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROJI BUGUNGI KUN NIGOHIDAJournal of Innovation, Creativity and Art Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287
38. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
39. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4)
40. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonovEurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683
41. Achildiyeva M,Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) 9(5)
42. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АСНИНГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTIONVol. 10 No. 1 (2023)
43. Xojimamatov AThe Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization Journal of Creativity inArt and Design Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>
44. Achildiyeva, MHistorical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement Journal of Creativity in Art and Design Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20 <http://journals.proindex.uz>